

23-Mavzu: Shaharlar aholi soni va zichligi funksiyalari bo'yicha guruhlash

Reja:

- 1. Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish**
- 2. Shaharlarni genetik va funksional tiplari**
- 3. Shaharlar klasfikatsiyasi**
- 4. O'zbekistonning urbanistik siyosati**

Shaharlar mamlakat va iqtisodiy rayonlar geografiyasida o'rganilishi bilan bir qatorda ular aloxida tadqiqot ob'ekti bo'lib ham xizmat qiladi. Bu borada, ya'ni shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish tartibi haqida ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ko'pgina taniqli olimlarning ko'rsatmalari mavjud. Albatta, shaharlarni o'rganish avvalombor ularning tarixi, kelib chiqishi, genetik xususiyatlarini taxlil qilishdan boshlanadi. Natijada asosan tarixiy manbalarga tayangan xolda, o'rganilayotgan shahar yoki shaharlarning nima uchun aynan shu joyda o'tmishning aynan shu bosqichida vujudga kelganligi yoritilib beriladi.

Shaharlarning retrospektiv o'rganish tarixiy tamoilga binoan bajariladi: qo'yilgan maqsad nuqtai nazaridan o'tmish ma'lum tarixiy davrlarga bo'linadi va har bir davrning shahar (shaharlar) shakllanishi va rivojlanishiga bo'lgan ta'siri tadqiq etiladi. Ammo bu erda tarixning "ikir-chikiriga" o'tib ketilmaydi, geografiya tarix uchun emas, aksincha tarix geografiyaga xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimiz shaharlarini o'rganishda ularni bunyod etilganligidan boshlab, xozirgi kungacha bosib o'tgan yo'lidagi asosiy tarixiy davriy voqealar qisqacha ko'rib chiqiladiva ular mavjud borlikdan kelib chiqqan xolda baxolanadi. Boshqacha qilib aytganda shaharlarning tarixi vujudga kelgan va rivojlanib ketgan davr nuqtai nazardangina emas (bu asosan tarixning vazifasi) balki ularning xozirgi vaqtdagi xolatidan kelib chiqib xam taxlil qilinadi. Tarixiy geografiya uchun esa xar bir xodisa o'sha davrdan kelib chiqib taxlil etilishi va baxolanishi lozim. Zero, Geraklit aytkanidek "Ayni bir oqimga bir vaqtning o'ziga ikki marta tushib bo'lmaydi". Chunki, ikkinchi marta kirganda oqim (suv) xam unga tushuvchi xam ilgari sidek emas, o'zgargan bo'ladi.

O'zbekiston shaxarlarini o'rganishida, ularning qadimiy va boy tarixtan tashqari, rus va sovetlar imperiyasi davirlar xam ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng shaxarlar shakllanishi va rivojlanishidagi mamlakatimizning mustaqillik davriga aloxida e'tibor berish lozim.

O'rganilayotgan shaxar yoki shaxarlar tarixiga ko'ra, ularning ginetik turlari ajratiladi, "yangi" va "eski" shaxarlar guruxi aniqlanadi. Endigi sharoitda "yangi shaxarlarni" sobiq sovetlar davrida vujudga kelganligi bilan asoslash nodurustdir. Qolaversa, yangi shaxar tushunchasining o'zi xam nisbiydir. Keng ma'noda yurtimizning yangi tarixiga muvofiq "yangi shaxarlar" deb ularni Turkiston Rossiya tomonidan zabt etib olingan (XIX asr yarimi) davridan so'ng paydo bo'lganlarini aytishi mumkin. Bunday shaxarlar turkumiga Farg'ona (Yangi Marg'ilon, Skobelov), Kobon (Yangi Buxoro), To'rtkul, (Petroaleksandrovsk) lardan boshlab kyengi yillarda vujudga kelgan barcha shaxarlar kiritiladi. Shu ma'noda SSSR davrida barpo bo'lgan shaxarlar (Navoiy, Zarafshon, Shirin,

Drujba, Marjonbuloq, Tolimarjon, Yangier va boshqalar) xam yangilar qatoriga kiradi. Ammo iqtisodiy va sotsial geografiya nuqtai nazaridan qaraganda butunlay “bo’sh” yoki o’zlashtirilmagan joylarda xamda kiyingi qisqa davrida axolisi va xo’jaligi keskin rivojlangan va tashqi qiyofasi tubdan o’zgargan manzilgoxlarni tom ma’nodagi yangi shaxarlar deb atash to’g’riroqdir.

Shaxarlar geografiyasini o’rganishdagi navbatdagi bosqich ularni katta-kichikligi bo’yicha tabaqalashtirish (klassifi-katsiyalashtirish)dan iboratdir. Bu erda qo’yilgan maqsad va tadqiq qilinayotgan ob’ekt xususiyatida kelib chiqib, shaxarlar to’ri axoli soni bo’yicha turli daraja yoki klasslarga ajratiladi. Eng avvalo ular 3 guruxga: katta, o’rta va kichik shaxarlarga bo’linadi, maxsus tadqiqotlarda esa yanada kengroq klassifikatsiya qo’llaniladi. Tabiyki, katta yoki kichik shahar tushunchasi ham nisbiydir. Masalan; Toshkent darajasini hatto azim Samarqand yoki Namangan ham kichik shaharlar (Yaponlar “shahar nima?” savoliga “bu Tokiodir” deb javob berishgan ekan). Ayni paytda mamlakatimiz qishloq joylari, ichkarisidan qaraganda tuman markazi-kichik shahar ham ular uchun katta, o’lkan ko’rinadi. Misol uchun Qashqadaryoning Qamashi yoki Chiroqchi axolisining nigohida shahar-bu, eng, avvalo Qamashi va Chiroqchidir; Qarshi, Samarqand, Toshkent esa ular uchun nixoyatda ulkan azim shahar hisoblanadi. Demak shaharlarni miqdoriy jixatdan turlicha baholash sun’iylikka ega ekan. Biroq bunday qarash, odatda oddiy xalq, xayotiy va an’anaviy kundalik andozalarga mos keladi, xolos. Ilmiy izlanishlarda esa har bir taqiqot ob’ekti uchungina emas, balki mamlakat miqyosida rasmiy ravishda qabul qilingan ma’lum andozalarga amal qilish kerak. Buni ayni paytda turli viloyat va mamlakatlar shaharlarni qiyosiy geografik o’rganishda ham qo’l keladi.

Shaharlarning genetik va funktsional tiplari

Shaharlar ma’lum sabab, omil asosida vujudga keladi. Ularning paydo bo’lishi qulay geografik o’rin bilan bir qatorda turli xil qazilma boyliklarni qazib olish, ilmu-fan, rekreatsiya, savdo-sotiq, sanoat tarmoqlari, transport kabilarning rivojlanishi bilan bog’liq. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning eng muhim xususiyati shundaki, ularning ahamiyati, ta’sir doirasi mazkur aholi manzilgohidan chetga chiqadi.

Qadimda shaharlar savdo-sotiq va hunarmandchilik negizida paydo bo’lishgan. Keyinchalik bunga eng ko’p sanoat va transport sababchi bo’lgan. Qazilma boyliklar asosida shakllangan shaharlarni ilmiy adabiyotlarda “resurs shaharlar” deb ham yuritishadi. Bunday shaharlar odatda, o’z atrofi, qishloq joylar bilan akm bog’langan bo’ladi.

Shaharlarning aksariyati bizning sharoitimizda ya’ni dehqonchilik rivojlangan mamlakatlarda, qishloqlar asosida tashkil etiladi, ular muayyan talab darajasiga etganlaridan so’ng qonuniy ravishda bu rasmiy maqomni olishadi. Shaharlarning bunday genetik xususiyatlari urbanizatsiya jarayonining, ayniqsa qishloq urbanizatsiyasining “sharqona” rivojlanishidan darak beradi.

Shaharlar kelib chiqishiga qarab, “yangi” va “eski” shahar bo’lishi mumkin. Biroq bu tushunchalar nisbiydir. Sababi yaqingacha biz sobiq sho’rolar davrida

vujudga kelgan shaharlarning barchasini “chngi shaharlar” guruhiga kiritar edik. Hozir esa yangi shaharlarni mustaqillik davri bilan belgilash to’g’riroqdir.

Biroq, aholi manzilgohining yuridik ravishda shahar maqomiga ega bo’lishi uning haqiqiy yangiligini ifodalamaydi. Chunki bunday aholi yashaydigan joylar qadim-qadimdan mavjud. Masalan, Chust shahri so’nggi marta shahar unvonini rasmiy ravishda 70-yillarda oldi, vaholankiuning real tarixi bir necha yuz yilliklarni o’z ichiga oladi. Xuddi shunday, G’ijduvon, Pskent, Nurota, Rishton va hokazolar ko’p yillik tarixga ega.

Aslida olganda, yangi shahar deyarli “bo’sh” joyda, yaqinda barpo bo’lgan, arxitektura qurilishi, obodonchiligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga eski qishloqning yangi yirik qurilish tufayli o’z qiyofasini tubdan o’zgartirishi, aholi sonini bir necha marta ko’paytirishi ham uning yangi shahar deb atalishiga asos bo’la oladi.

Shaharlarning kelib chiqishi, ularning genetek xususiyatlarini o’rganish tarixiy yondashuvni talab qiladi. Ana shunday tarixiy tahlil yordamida ularning o’tmishi va hozirgi xolati baholanadi. Bu esa, o’z navbatida, shaharlarni bashorat qilishga (prognozlashga) ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Ko’pchilik xollarda shaharlarning genetek tiplari ularning nima bilan shug’ullanishini ham belgilab beradi. Bu esa ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o’rni, basharasini ko’rsatib turadi.

Shaharlar ham turli sohalarga ixtisoslashadi, ya’ni ularning o’ziga xos va mos “kasbi” vazifasi va yo’nalishi mavjud. Bu jihatdan shaharlar sanoat, transport, ilmu-fan, dam olish markazlari bo’lishi mumkin.

Shaharlarning qaysi sohaga ixtisoslashuvi, ularning bajaradigan vazifasini aniqlash **funktsional tipologiya** doirasida amalga oshiriladi. Bunda bosh mezon qilib shahar axolisining bandlik tarkibi olinadi, ya’ni qaysi soxada mehnat resurslari ko’proq (mamlakat shahar joylari bo’yicha o’rtacha ko’rsatkichdan yuqori) bo’lsa, o’sha yo’nalish mazkur shaharning funktsional tipini ifodalab beradi.

Odatda shaharlar quydagi funktsional tiplarga bo’linadi.

1. Ko’p funktsiyali siyosiy-ma’muriy markazlar, poytaxt shaharlar.
2. Ko’p funktsiyali shaharlar-viloyat markazlari.
3. Ko’p tarmoqli yirik sanoat markazlari.
4. Asosan bir necha yoki sanoat tarmog’iga ixtisoslashgan shaharlar.
5. Transport markazlari
6. Agroindustrial shaharlari
7. Tuman markazlari
8. Rekreatsiya shaharlari
9. Ilmu-fan markazlari, unversitiet shaharlari va x.k.

Yuqoridagi funktsional tiplar shaharlarning katta-kichikligiga qarab ham turlanadi. Bu holda shaharlarning funktsional klassifikatsiyasi vujudga keladi.

O’zbekistonda birinchi ikkinchi guruh shaharlarga Toshkent hamda barcha viloyat markazlari kiradi. Ular ayni paytda ko’p tarmoqli sanoat markazlari ham hisoblanadi. Uchunchi tipga asosan Chirchiq, Olmaliq, Qo’qon kabi shaharlar

mansub, to'rtinchi guruhga Marg'ulon, Angren, Ohangaron, Muborak, Gazli, Zarafshon, Taxiatosh, Asaka, Uchqo'rg'on, Quvasoyga o'xshashlarini kiritish mumkin.

Qo'qon, Xovos, Qo'ng'iroq-transport shaharlari, Chortoroq-rekreatsiya, Ulug'bek-fan markazlaridir.

Respublikamizda juda ko'p shaharlar anroindustrial yo'nalishga ega, ya'ni ularda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari mavjud. Ulardan ko'proq shaharlar qishloq tumanlar markazi vazifasini bajaradi. Biroq, bunday shaharlar-"kichik poytaxtlar" ayni paytda agroindustrial xarakteriga ega bo'lishlari ham mumkin.

Poytaxt shaharlar mamlakat shaharlar turi va tizimida karvonboshchilik qilishadi. Ammo ular aholisi bo'yicha eng katta, sanoat o'ta rivojlangan bo'lishi aslo shart emas. Chunki, bunday shaharlarning asosiy vazifasi-siyosiy markaz, dorulsaltanat, ya'ni poytaxt funksiyasini bajarishdan binobarin mamlakatni boshqarish, uni siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tashkil qilishdan iborat bo'lishi lozim.

Juda ko'p mamlakatlarda poytaxt shaharlar muammosi keskin turadi. Bunday shaharlar mumkin qadar mamlakat xududining o'rtasida (markazida), tarixan asosiy tub millat tarqalgan xududda joylashgan bo'lmog'i lozim. Shu bilan birga, bu shaharlarda boshqaruv funksiyasi keng rivojlangan bo'lishi shart.

Dunyo mamlakatlarining ayrimlarida poytaxt shaharlari o'zgarib turgan. Masalan, Braziliyada poytaxt Rio-de-Janeyrodan Braziliaga, Pokistonda Karachidan Islomobodga, Qozog'istonda Olma-Otadan Ostonaga ko'chirilgan va xakozo. Bir vaqtlar Ukrainaning poytaxti Harkov, Rossiyaniki Peterburg, Turkiyaniki Stabul, Qoraqalpog'istonniki To'rko'l bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining dastlabki poytaxti Samarqand bo'lib, 1930- yilda bu vazifani bajarish Toshkentga ko'chirilgan.

Poytaxt shaharlarining nufuzi ham, ma'suliyati ham yuqori. Binobarin, har qanday mamlakat o'zining bosh shahri, "yo'l boshchisiga" katta e'tibor bermog'i tabiiydir, chunki ular o'sha joyda yashovchilarning milliy iftixori hisoblanadi.

Shaharlar klassifikatsiyasi

Oldingi mavzulardan ma'lum bo'ldiki, shaharlar har xil omillar asosida vujudga kelib, o'ziga xos vazifalarni bajarishga ixtisoslashdilar. Agar datlabki shaharlarning uzoq o'tmishda paydo bo'lishi ijtimoiy mehnat taqsimoti ta'sirida bo'lsa, ularning funktsional tiplari xududiy mehnat taqsimotining natijasidir.

Shaharlar bajariladigan vazifasiga ko'ra turliligi ularning ayni paytda katta-kichikligini ham belgilab beradiki, bu shaharlar geografiyasidagi muhim qonuniyatlardan biridir. Demak, shaharlarning katta-kichikligiga qarab ularning funktsiyasi tashkil topmaydi; aksincha shaharlarning funktsiyasi, iqtisodiy yo'nalishi aksariyat hollarda ularning yirikligi ifodalaydi.

Shaharlar o'z ko'lamiga qarab eng avvalo 3 kategoriyaga bo'linadi (umuman, bunday "uch o'lchovlik" barcha mavjudodlarga ham xos): katta, o'rta va kichik. Biroq bu tushunchalar tarixiy-geografik nuqtai nazardan nisbiydir. Masalan, bir vaqtlar yirik hisoblangan shahar hozirgi davrda bunday bo'lmasligi

aniq. Ayni paytda shaharlarning katta-kichikligini belgilovchi miqdoriy ko'rsatkichlar ham hamma vaqt barcha mamlakatlarda bir xil emas. Tabiiyki, uzoq qishloq aholisi uchun tuman markazi ham ancha yirik shahar hisoblanadi. Ammo, malakat va uning poytaxti darajasidan qaraganda xatto ba'zi viloyat markazlari ham ancha kichik ko'rinadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, geografik taqqoslash va ilmiy tadqiqotlarni bajarishda barchaga xos bo'lgan umumiy mezon kerak, ya'ni shaharlarning yiriklik kategoriyasi, sub'ektiv va mahalliy qarashlaridan qat'iy nazar, hammaga bir bo'lishi shart.

Shu nuqtai nazardan yondoshganda yirik yoki katta shaharlar aholisi 100 ming kishidan ortiq, o'rta shaharlarda 50-100 ming va kichik shaharlarning har birida kamida 50 ming kishigacha aholi bo'lishi kerak. Bunday klassifikatsiya oddiy va barchaga tegishlidir. Maxsus ilmiy tadqiqotlarda esa shaharlar klassifikatsiyasi ancha keng turlangan bo'ladi:

- I. 10 mingtagacha -mayda shahar
- II. 10-20 ming -kichik shahar
- III. 20-50 ming -"yarim o'rta" shahar
- IV. 50-100 ming -o'rta shahar
- V. 100-250 ming -katta shahar
- VI. 250-500 ming -yirik shahar
- VII. 500-1000 ming -eng yirik shahar
- VIII. 1000 ming va undan ortiq millioner shahar.Q

Albatta, shaharlarning bunday miqdoriy ko'rsatkichlari tasoddiy bo'lmay, ma'lum qonuniyatlarga ham asoslanadi. Chunonchi, I klass shaharlari ko'pincha temir yo'l stantsiyalari yoki kichik resurs shaharchalardan tashkil topsa. II klassdagilar asosan resurs shaharlar, III klass esa deyarli batamom tumanlarning ma'muriy markazlaridan iborat. Bu toifadagishaharlar qisman IV klassda ham bor. Ammo V klassdan to'la ttekis viloyat markazlari joy oladi.

Shunday qilib shaharlar to'ri xuddi armiya tizimidagidek, turli bosqichdagi "qo'mondonlarga" o'xshaydi. Ularning bunday pog'onasimon joylanishi shaharlar ierarxiyasini vujudga keltiradi. Ierarxiya shakli qancha to'g'ri va to'la bo'lsa, mamlakat yoki boshqa bir xudud ham ijtimoiy -iqtisodiy jixatdan shunga muvofiq mukammal shakllangan bo'ladi. Maxsus ilmiy adabiyotlarda Zipfa-Styuart qoidasi mavjud bo'lib, u xudud shaharlarining bir tartibida to'g'ri joylanishini nazarda tutadi. Masalan, ikkinchi shahar birinchi shahar aholisining yarmi, uchunchi shahar uning 1g'3, to'rtinchisi-1g'4 aholisiga ega bo'lishi kerak. Biroq, bu g'oya xayotda to'laligicha o'z isbotini juda kam holda topgani uchun, gipoteza darajasida talqin qilinishi mumkin.

Shunga qaramay, yuqoridagi qoida ma'lum ahamiyat kasb etadi. Har qalay mamlakat o'z shaxarlar turi tarkibi va tizimini ana shunday zanjirsimon, pog'onasimon tartibda shakllantirishiga harakat qilishi va o'zining mintaqaviy siyosatida amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Sababi - mamlakat axolisining ko'pchilik qismini uning bir yoki ikki yirik shaxrida to'planishi ham (bu shaxarlar gipertrofiyasi deyiladi), yoki, aksincha, axolining juda ko'p mayda shaxarlarda

tarqalishi ham yaxshi emas. Tabiiyki, ikkinchi holda mamlakat hududiy iqtisodiy jixatdan rivojlanmagan bo'ladi.

Shaharlar ierarxiyasini piramidasimon ham tasavvur qilish mumkin. U yoki bu hudud uchun tuzilgan piramida ayni paytda turli yiriklikdagi shaharlar rivojlanishi bilan bog'lik muaommolarni aks ettiradi.

Shaharlar klassifikatsiyasida "birinchi" va "ikkinchi" shahar tushunchalari mavjud, Masalan, O'zbekistonning birinchi shaxri uning poytaxti Toshkent bo'lsa, uning ikkinchi darajasidagi shahar Samarqanddir (hozirgi kunda bu mavqega Namangan da'vogarlik qilmoqda).

Umumun, respublikamizda 17 ta yirik shaharlar bor. Ular (aholasi ming kishi hisobida, 1.01.2017 y)

№	Shahar nomi	Aholi soni
1	Toshkent	2424.1
2	Namangan	590.2
3	Samarqand	523.8
4	Andijon	421.9
5	Nukus	307.4
6	Buxoro	276.0
7	Farg'ona	274.5
8	Qarshi	264.5
9	Qo'qon	243.1
10	Marg'ilon	225.5
11	Angren	183.2
12	Jizzax	169.6
13	Chirchiq	153.8
14	Termiz	142.1
15	Urganch	139,3
16	Navoiy	134.1
17	Olmalik	126.0

O'rta shaharlarga Bekobod, Yangiyo'l, Asaka, Xo'jayili, Kogon, Zarafshan, Guliston, Denov, To'rtkul, Shaxrixon, Shaxrisabz, Koson, Chust, Kattako'rg'on, kiradi. Bularning orasida faqat Guliston viloyat markazi. Qolgan shahar va shaharchalar kichik, ya'ni I-III klasslarga mansubdir.

O'zbekistonning urbanistik siyosati

Mustaqillik yillarida respublika hukumati tomonidan hududlar infratuzilmasinirivojlantirishga katta e'tibor qaratilishi, nafaqat iqtisodiy rivojlanishi past bo'lgan hududlar salohiyatini oshirishga, shu bilan birga bu joylarda urbanizatsiya jarayonining jadallashuviga, yangi shahar aholi manzilgohlarining vujudga kelishiga ham ta'sir qiladi.

Urbanizatsiya darajasidagi o'zgarishlar avvalo hududlarning demografik vaziyati, iqtisodiyotining ixtisoslashuvi va tarmoqlar tarkibidan tashqari ayrim

tuman markazlariga shahar va shaharcha maqomining berilishi, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish, shaharlarni rivojlantirish masalalariga ham bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunining 12-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2005 yil 14 iyuldagi PQ-120-sonli qaroriga binoan 2000 dan ortiq kishi yashaydigan, Qonunda ko'zda tutilgan moddalarga mos keladigan qishloqlarni shaharchalarga aylantirish bo'yicha 2009 yil 13 martda Vazirlar Mahkamasining 68-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga binoan yirik va katta shaharlar salohiyatini oshirish, ularda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini shakllantirish va takomillashtirish uchun qilinayotgan sa'iy-harakatlar bois, mamlakatda 966 ta qishloq aholi punktlari shaharchalarga aylantirildi. Jumladan, Andijon viloyatida 78 ta, Namangan viloyatida 109 ta va Farg'ona viloyatida 196 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi.

Tayanch atamalar: O'zbekiston shaxarlari, yangi shaxar, shaxarlar geografiyasi, shaharlarning genetik tiplari, shaharlar funksional tiplari, shaharlar klassifikatsiyasi

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Shaharlarni genetik va funksional tiplarini aytib bering
2. Shaharlar qanday klasfikatsiyalarga bo'linadi?
3. O'zbekistonda qanday urbanistik siyosat olib borilmoqda?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Bo'rieva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
3. Qodirov R.B. Farg'ona mintaqasi aholisi va mexnat resurslari.-T.: Navro'z, 2016

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Abdurahnmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.

5. Bo'rieva M.R., Tojiev Z.N. Aholi geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
6. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
7. Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997.-157 b.
8. Narodonaselenie. Ensiklopedicheskiy slovar. – M., 1994.
9. Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). – T., 2006.

Elektron manbalar:

1. <http://ziyo.net>